

# 1-SEKTOR HUDUDIDAGI SOHIBKOR MAHALLA FUQAROLAR YIG'INI SHAHARSOZLIK HUJJATLARI ISHLAB CHIQILDI

QMMB: 07/23/299/0692-son  
12.09.2023-y.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2023 yil «11» sentyabr

№ ПҚ–299

**Шаҳарсозлик фаолияти соҳасида давлат бoshқаруви тизимини янада такомиллаштириш ҳамда 2023–2027 йилларда аҳоли пунктларининг шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш дастурларини тасдиқлаш чора-тадбирлари тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсон қадрини улўғлаш ва фаол маҳалла йили” да амалга оширишга оид давлат дастури ҳамда 2020 йил 27 ноябрдаги ПФ–6119-сон Фармони билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021–2025 йилларга мўлжалланган стратегияси ижросини таъминлаш, шунингдек, ҳудудлар ва аҳоли пунктларининг шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш тизимини такомиллаштириш мақсадида:

**1. Ҳудудларни шаҳарсозлик жиҳатидан режалаштиришга доир ишлаб чиқиладиган ҳужжатларнинг қуйидаги даражалари белгилансин:**

**биринчи даражада** — ҳудудларнинг рақобат устунликлари ва барқарор ривожланиш драйверларини аниқлаб берувчи Ўзбекистон Республикаси ҳудудини ривожлантиришни режалаштириш бош схемаси (кейинги ўринларда – Бош схема) ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар ҳудудларини ривожлантиришни режалаштириш схемалари (кейинги ўринларда – ҳудудий схемалар), шунингдек, шаҳарлар (шаҳарчалар) ва шаҳар атрофи зоналари интеграцияси асосида Агломерацияларни ривожлантириш стратегияси ишлаб чиқилади;

## 1-сектор hududidagi Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqildi

Respublikamizda hududlar va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini takomillashtirish maqsadida 2023 yil 11 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 299-sonli “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023 — 2027 yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilingan.

---

Mazkur qarorning 5-ilovasiga muvofiq 2024 yilda 9 ta mahalla fuqarolar yig'inlarining shaharsozlik xujjatlari "Qishloqqurilishloyiha" davlat muassasasi tomonidan ishlab chiqish ishlari yakunlanmoqda. Qarorga asosan viloyatimizning Qo'sh tepa tumani "Balandmasjid" mahalla fuqarolar yig'ini, Oltiariq tumani "Jarqo'rg'on" mahalla fuqarolar yig'ini, So'x tumani "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini, Toshloq tumani "Yuqori qishloq" mahalla fuqarolar yig'ini, Buvayda tumani "Yangi Qishloq" mahalla fuqarolar yig'ini, Dang'ara tumani "Qashqar" mahalla fuqarolar yig'ini, Quva tumani "Baynalminal" mahalla fuqarolar yig'ini, Uchko'prik tumani "Xasanqora" mahalla fuqarolar yig'ini va Oltiariq tumani Qapchug'ay mahalla fuqarolar yig'inining shaharsozlik hujjatlari tayyorlanmoqda.

So'x tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i Muhriddin Boybolayevning ma'lumotiga ko'ra, Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini bo'yicha mazkur soha mutaxassislari ishtirokida loyiha ishlab chiqarildi. Ishlab chiqilgan loyihalarni tuman hokimi, sektor rahbarlari hamda hududlardagi mahalla fuqarolar yig'iniga tanishtirish va jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun amaliy ishlar olib borilmoqda.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**



**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-10-31 17:07:18